

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI
DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SHOLICHILIK ILMIY TADQIQOT INSTITUTI

USMONOVA SHOHISTA USMON QIZI

**O‘TLOQI-BOTQOQ TUPROQLAR SHAROITIDA MINERAL O‘G‘ITLAR
FONIDA STIMULYATORLARNING SOYA NAVLARI
HOSILDORLIGIGA TA‘SIRINI O‘RGANISH VA ILMIY ASOSLASH**

06.01.08 – O‘simlikshunoslik

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по сельскохозяйственным наукам**

**Content of the abstract of (PhD) doctoral dissertation on
agricultural sciences**

Usmonova Shohista Usmon qizi

О‘tloqi-botqoq tuproqlar sharoitida mineral o‘g‘itlar fonida stimulyatorlarning soya navlari hosildorligiga ta’sirini o‘rganish va ilmiy asoslash.....

3

Усмонова Шоҳиста Усмон қизи

Изучение и научное обоснование влияния стимуляторов на урожайность сортов сои на фоне минеральных удобрений в условиях лугово-болотных почв.....

21

Usmonova Shokhista Usmon kizi

The study and scientific substantiation of the effect of stimulators on yield of soybean varieties based on background of mineral fertilizers in the conditions of meadow-swamp soils.....

41

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works

46

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI
DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SHOLICHILIK ILMIY TADQIQOT INSTITUTI

USMONOVA SHOHISTA USMON QIZI

**O‘TLOQI-BOTQOQ TUPROQLAR SHAROITIDA MINERAL O‘G‘ITLAR
FONIDA STIMULYATORLARNING SOYA NAVLARI
HOSILDORLIGIGA TA‘SIRINI O‘RGANISH VA ILMIY ASOSLASH**

06.01.08 – O‘simlikshunoslik

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Qx1122 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Sholichilik ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz tilida (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining (www.tdau.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Atabayeva Xalima Nazarovna
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

1. Iminov Abduvali Abdumannobovich
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

2. Maxmudov O'tkir Xaydarovich
qishloq xo'jaligi falsafa fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

O'simliklar genetik resurslari ilmiy tadqiqot instituti

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi DSc.05/04.03.2022.Qx.13.01 raqamli Ilmiy kengashning «___» _____ 2024 yil soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil 100140, Toshkent, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel: (99871); faks: (+99871); e-mail:taug-info@edu.uz.; Toshkent davlat agrar universiteti Ma'muriy binosi, qavat, anjumanlar zali).

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№___ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko'chasi, 2-uy. Toshkent davlat agrar universiteti, Axborot-resurs markazi binosi. Tel: (+99871) 260-50-43).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «___» _____ da tarqatildi.
(2024 yil «___» _____ dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi)

U.Norqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
q.x.f.d., professor.

A.A.Qurbonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, q.x.f.n., dotsent.

M.S.Raxmankulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, q.x.f.d., professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda yer yuzi aholisini oqsilli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda soya ekini yetishtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2023-2024 yilda soya ishlab chiqarish oldingi yildagi 372 million tonnaga nisbatan 6,4 % ga oshib, 396,7 million tonnaga yetdi¹. Jumladan, Argentina, Braziliya, Urugvay, Paragvay va AQSh davlatlari yetishtirilayotgan soya mahsulotining 84 % izini tashkil etadi². Braziliyada soya maydonlari 45,6 mln.gektar, AQShda 336 mln.gektar, Argentinada 16,4 mln.gektar, Hindistonda 12,5 mln. gektar, Xitoyda 10,5 mln gektar, Rossiya federatsiyasida 3,45 mln.gektarni tashkil etmoqda³. Ushbu davlatlarda soya ekinini parvarishlashda foydalaniladigan mineral o'g'itlar me'yorlariga qo'shimcha ravishda o'sishni sozlovchi moddalar bilan bargidan oziqlantirish agrotexnologiyalari evaziga yuqori va sifatli don hosili olishga erishilmoqda. Soya ekinidan yuqori va sifatli don hosili olishda yetishtirilayotgan ushbu hududlarning tuproq-iqlim sharoitlaridan kelib chiqib navlarni tanlash, qo'llanilayotgan mineral o'g'itlar me'yorlariga qo'shimcha ravishda o'sishni sozlovchi moddalarni qo'llashning samarali usullarini ishlab chiqish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Dunyoning yetakchi soya yetishtiruvchi mamlakatlarida har bir hududning tuproq-iqlim sharoitlariga bog'liq holda yangi navlarni yaratish va mavjudlarini muayyan hududlarga moslashtirish, innovatsion agrotexnologik elementlarni qo'llash, jumladan o'simlikni o'sishi, rivojlanishi, don hosildorligini oshirishi va doni tarkibidagi sifat ko'rsatkichlarini oshirishini ta'minlovchi maqbul o'sishni sozlovchi moddalarning turlari va me'yorlarini aniqlashga doir ilmiy tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, soya o'simligining biologiyasini hisobga olgan holda yetishtirishda foydalaniladigan organik moddalar, mineral o'g'itlar me'yorlariga qo'shimcha ravishda biologik o'sishni sozlovchi moddalardan foydalanish evaziga qo'shimcha don hosili olishni ta'minlovchi ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda aholini oqsilli oziq-ovqat, sanoatni xomashyo va chorvachilikni to'yimli ozuqaga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish va tuproq unumdorligini oshirish maqsadida soya ekinini yetishtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5853-son farmoni ijrosi jarayonida O'zbekistonda 2022-yilda 146,5 ming gektar, shundan 82,5 ming gektar ochiq maydonlarga va 64,0 ming gektar g'o'za qator oralariga soya ekilishi va 165,0 ming tonna soya doni yetishtirilishi rejalashtirilgan bo'lsa⁴, 2023-yilda esa 102,7 ming gektar ochiq maydonga soya ekilishi va mazkur maydonlarda 142,7 ming tonna soya doni yetishtirilishi rejalashtirilmoqda, ushbu soya donidan 24

¹ <https://www.statista.com/statistics/263926/soybean-production-in-selected-countries-since-1980/>

² https://ipad.fas.usda.gov/cropexplorer/cropview/commodityView.aspx?cropid=2222000&sel_year=2023&rankby=Production

³ <https://www.argusmedia.com/en/news/2448976-record-global-202324-soy-production-usda>

⁴ <https://www.agro.uz/ru/11-0127/>

ming tonna soya moyi va 107 ming tonna soya shroti ishlab chiqish imkoniyati yaratilish kabi muhim ustuvor vazifalar belgilangan⁵. Shu boisdan, mamlakatimizda kelgusida aholini oziq-ovqat hamda chorvani ozuqaga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashda ekologik toza mahsulot yetishtirish, tuproq unumdorligini oshirish va boshqa masalalarni hal etishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan soya ekinini yangi navlarini yaratish, mavjudlarini parvarishlash agrotexnologiyasini takomillashtirish, xususan mineral o'g'itlar me'yorlarini o'sishni sozlovchi moddalarni qo'llash hisobiga kamaytirishning samarali usullarini ishlab chiqishga oid tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 5-apreldagi "2023-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-113-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 3-avgustdagi "Qishloq xo'jaligi sohasiga ilg'or raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish chora tadbirlari" to'g'risidagi PQ-330-sonli qarori, hamda boshqa me'yoriy-xuquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V."Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Soya ekinidan yuqori va sifatli hosil yetishtirish bo'yicha xorijda ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari o'tkazilgan bo'lib, jumladan AQShda P.Calvo, L.Nelson, and J.W.Kloepperlar soya hosildorligiga stimulyatorlar turlari va me'yorlarining ta'siri, Eronda Aftab T, Idrees M, Naeem M va Moinuddin, M.Ashraf, N.A.Akram, R.N.Arteca, M.R.Fooladlar soyaning o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga, fiziologik, biokimyoviy jarayonlariga biologik faol moddalar va stimulyatorlarning ta'siri, Hindistonda U.P.Rayirath, S.Subramanian, M.N.Jithesh, P.Rayorath, D.M.Hodges, S.Singh va R.C.Tiwarilar soyaning o'sishi, rivojlanishiga dengiz suvo'tlaridan ajratib olingan biostimulyatorlar, fosforli o'g'itlar va o'sishni sozlovchi moddalarning soyaning hosildorligi va don sifatiga ta'siri, Rossiyada A.Ya.Barchukova, E.Sh.Tabibullaev, T.V.Sikunkova, V.Yu.Xrenovskiy, V.V.Vakulenko, O.A.Shapoval, O.P.Ran, O.A.Selixova, Ivebor Lourens Uche soya o'simligiga ta'sir etuvchi yangi preparatlarni yaratish, o'sishni sozlovchi moddalarning ta'siri, ekinlarda biologik preparatlarni qo'llash dasturi, soyada o'sishni sozlovchi moddalar ta'sirida fotosintez aktivligini o'rganishgan. Mamlakatimizda X.N.Atabayeva, D.Yormatova, M.Mannopova, N.Xalilov, B.M.Xoliqov, M.Abzalov, R.Siddiqov, Abdualimov Sh.X, M.A.Sattarov, A.A.Iminov, F.B.Namozov, K.M.Tadjiev, N.S.Umarova, I.Abitov va boshqa ko'plab olimlar tomonidan soya o'simligining biologiyasi, o'g'itlash turlari, muddatlari, ekish me'yori, usullari, seleksiyasi va yetishtirish texnologiyasiga doir keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

⁵ <https://www.agro.uz/06072023-1>

Ammo, Toshkent viloyatining o‘tloqi-botqoq tuproqlari sharoitida soya navlarini yetishtirishda stimulyatorlarni qo‘llash usuli va me‘yorlarining soya o‘simligiga ta‘siriga oid ilmiy-tadqiqot ishlari yetarlicha o‘rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Sholichilik ilmiy tadqiqot instituti Dukkakli-don ekinlar seleksiyasi va yetishtirish agrotexnologiyasi laboratoriyasining “Soya va mosh ekinlarining serhosil, don sifati yuqori, kasallik va zararkunandalarga chidamli yangi navlarini yaratish va intensiv agrotexnologiyalarini ishlab chiqish” (2021-2023) mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Toshkent viloyatining o‘tloqi-botqoq tuproqlar sharoitida soya o‘simligining mahalliy Nafis va xorijiy Vilana navlarini asosiy ekin sifatida mineral o‘g‘itlar fonida stimulyatorlar turlari va qo‘llash usullarini o‘rganishning soya navlarining o‘sishi, rivojlanishi, hosildorlikka ta‘sirini aniqlash va ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

soya navlarida yuqori va sifatli don hosilini ta‘minlaydigan maqbul stimulyator turlari va qo‘llash usullarini aniqlash;

qo‘llaniladigan stimulyatorlarning soya navlarini o‘sishi va rivojlanishiga ta‘sirini aniqlash;

stimulyatorlarning soya navlarini fotosintetik va simbiotik faoliyatiga ta‘sirini aniqlash;

soya navlarida hosil shakllanishiga mineral o‘g‘it fonida stimulyatorlarning ta‘sirini aniqlash;

mineral o‘g‘it fonida stimulyatorlarni soya navlarining don sifatiga ta‘sirini aniqlash;

o‘tloqi-botqoq tuproqlar sharoitida soya navlarida mineral o‘g‘itlar fonida stimulyatorlarni qo‘llashning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning ob‘ekti sifatida Toshkent viloyatining sug‘oriladigan o‘tloqi-botqoq tuproqlari, mineral o‘g‘itlar, stimulyatorlar turlari (Uzgumi, Fulvogummat, Rival), soyaning Nafis va Vilana navlari olingan.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib, soya navlarini mineral o‘g‘itlar fonida stimulyatorlar bilan urug‘ga ishlov berish va vegetativ usulda oziqlantirish sharoitida o‘simlikning o‘sishi, rivojlanishi, fotosintetik va simbiotik faoliyati, ildizning rivojlanishi, hosil va don sifatini aniqlash hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari: dala tajribalarini o‘tkazish, hisoblashlar va kuzatishlar “Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур”, “Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari (PSUYAITI)” va B.A.Dospexovning “Методика полевого опыта” qo‘llanmasi asosida amalga oshirildi. Barg yuzasi Nichiporovichning (vazn uslubi) uslubida, tuganaklar soni va vazni G.S.Posipanov usulida, iqtisodiy ko‘rsatkichlar V.N.Polozhiy uslubida aniqlandi. Tadqiqotlardan olingan ma‘lumotlarning statistik tahlili Microsoft Excel dasturi yordamida B.A.Dospexovning “Методика полевого опыта” qo‘llanmasi asosida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Toshkent viloyatining o'tloqi-botqoq tuproqlari sharoitida soyaning Nafis va Vilana navlarini faol o'sishi va rivojlanishini ta'minlaydigan mineral o'g'itlar fonida Uzgumi stimulyatorini 240 ml/ga, Fulvogummat stimulyatorini 300 ml/ga va Rival stimulyatorini 600 ml/ga me'yorlarda shonalash-gullash va gullash-dukkaklanish fazalarida 2 marta barg orqali oziqlantirish maqbul ekanligi aniqlangan;

soya navlarining quruq massa miqdoriga mineral o'g'itlar fonida stimulyatorlar qo'llashning ta'siri aniqlanganda quruq massa miqdori Nafis navida fon variantiga nisbatan, Uzgumi stimulyatori qo'llanganda 73,6 s/ga bo'lib, fon variantidan 3,1-25,7 %, Fulvogummat stimulyatori qo'llanganda 21,9-43,9 % va Rival stimulyatori qo'llanganda 13,6-37,1 %, Vilana navida fon variantiga nisbatan Uzgumi stimulyatori qo'llanganda quruq massa miqdori 56,3 s/ga bo'lib, fon variantidan 11,2-25,9 %, Fulvogummat stimulyatori qo'llanganda 18,6-38,4 % va Rival stimulyatori qo'llanganda 15,3-30,2 % ortgani, navlar bo'yicha o'rtacha Uzgumi ta'sirida 52,4 va 42,4; Fulvogummat ta'sirida 53,6 va 45,4; Rival ta'sirida 52,8 va 43,9 ming m²/ga barg yuzasi shakllangani va fotosintez sof mahsuldorligi sutkasiga tegishli 1,06-1,15, 1,92-1,59, 1,6-1,28 g/m².kun/ga ortgani aniqlangan;

soyaning Nafis va Vilana navlarida mineral o'g'itlarning N₅₀P₁₀₀K₇₀ kg/ga me'yori fonida stimulyatorlarni maqbul me'yorlarda bargdan qo'llanilishi natijasida o'rtacha navlar bo'yicha gektariga 7,6-7,3, 9,7-10,3, 8,3-8,9 sentnergacha azotni faol o'zlashtiruvchi tunganak bakteriyalar hosil bo'lishi bilan birga, tuproqda navlar bo'yicha 25,7-23,6, 36,4-31,8, 29,3-27,5 s/ga miqdorida ildiz massasi qoldirishi aniqlangan;

soya navlarini yetishtirishda mineral o'g'itlarning N₅₀P₁₀₀K₇₀ kg/ga me'yori fonida stimulyatorlarni maqbul me'yorlarda bargdan qo'llanilishi natijasida Nafis navida stimulyatorlar turlari bo'yicha 33,4-37,4-36,7 s/ga, Vilana navida 32,4-36,2-34,2 s/ga don hosili olinganligi hamda don tarkibidagi oqsil miqdori stimulyatorlar turlari bo'yicha Nafis navida 1,7-0,9-1,6 % va Vilana navida 2,2-2,7-3,2 % ortganligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

soya navlarini stimulyatorlar bilan o'simlikni bargi orqali oziqlantirish hisobiga biokimyoviy, fiziologik jarayonlar tezlashishi, hosildorlik va iqtisodiy samaradorlikni ortishini ta'minladi;

stimulyatorlarning maqbul me'yor va usullarda qo'llanilishi soya navlarini faol o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ijobiy tasir ko'rsatib, o'simlikning bo'yi navlar bo'yicha 16,6-19,3-16,8 va 18,1-26,1-22,4 % ga; barg yuzasi 7,1-8,3-7,5 va 4,1-7,1-5,6 ming m²/ga ortganligi, Nafis navining don hosili 11,9-21,4-10,6 % ga, Vilana navining don hosili 16,9-25,7-21,3 % ga yuqori bo'lganligi aniqlandi;

stimulyatorlarni N₅₀P₁₀₀K₇₀ kg/ga me'yori fonida maqbul me'yorlar va usullarda qo'llanilishi don hosili ortishini ta'minlab, rentabellik darajasini navlar bo'yicha o'rtacha Uzgumi stimulyatori ta'sirida 149,1 va 136,1 %, Fulvogummat stimulyatori ta'sirida 179,4 va 163,9 % va Rival stimulyatori 169,5 va 145,2 % ni tashkil etishi natijasida yetishtirilgan donni tannarxi pasayishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari laboratoriya va dala tajribalarining zamonaviy usullarda olib borilganligi, olingan ma'lumotlar aprotatsiya komissiyasi mutaxassislaridan tomonidan ijobiy baholanganligi, olingan nazariy va amaliy natijalarining bir-biriga mos kelishi, hosildorlik ma'lumotlariga matematik-statistik va korrelatsion ishlovlar to'g'ri amalga oshirilganligi, tajribadan chiqarilgan xulosalar va qonuniyatlarning asoslanganligi va mamlakatimiz va chet el ilmiy tadqiqot ishlari bilan taqqoslanganligi, soya o'simligi hosildorligiga va don sifatiga ijobiy ta'siri, tuproq iqlim sharoitiga mos ravishda keng joriy etilganligi, tadqiqot natijalari har yili Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi va Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti maxsus aprotatsiya komissiyasi tomonidan ko'rikdan o'tkazilganligi, Respublika va xalqaro miqyosidagi konferensiyalarda muhokama etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'tloqi-botqoq tuproqlar sharoitida soya navlariga stimulyatorlarning har xil turlari va qo'llash usullarining, o'simlikning o'sishi, rivojlanishi, fotosintetik va simbiotik faoliyatiga, hosil shakllanishi va don sifatiga ijobiy ta'siri ilmiy asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Toshkent viloyatining sug'oriladigan o'tloqi-botqoq tuproqlar sharoitida soyaning Nafis va Vilana navlariga stimulyatorlarni har xil turlari urug'ga ishlov berish va bargdan suspenziya usulida oziqlantirish natijasida uning don hosildorligi va sifatiga ta'siri yuqori bo'lganligi, yuqori samaradorlikka erishilganligi hamda olingan natijalar amaliyotga keng joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Toshkent viloyatining o'tloqi-botqoq tuproqlari sharoitida soya navlaridan yuqori va sifatli hosil yetishtirishni ta'minlaydigan mineral o'g'itlar me'yori fonida stimulyatorni qo'llashning maqbul usul va me'yorlarini aniqlash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

soya navlarining o'sishi, rivojlanishi, fotosintetik va simbiotik faoliyati, hosil shakllanishi va don sifatini oshirishda mineral o'g'itlar fonida Uzgumi, Fulvogummat va Rival stimulyatorlari bilan oziqlantirish bo'yicha "Soya navlarini o'tloqi botqoq tuproqlar sharoitida yetishtirishda mineral o'g'it va stimulyatorlarni qo'llash texnologiyasi" tasdiqlangan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2024-yil 13-yanvardagi №06/22-06/62-son ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu tavsiyanoma bugungi kunda Toshkent viloyatining fermer xo'jaliklari va klasterlarida soyani parvarishlashda qo'llanma sifatida xizmat qilmoqda;

soyaning Vilana va Nafis navlarini yetishtirishda mineral o'g'itlarning N₅₀P₁₀₀K₇₀ kg/ga me'yori qo'llanilgan fonda Uzgumi stimulyatorini 240 ml/ga, Fulvogummat stimulyatorini 300 ml/ga va Rival stimulyatorini 600 ml/ga me'yorlarda 2 marta barg orqali oziqlantirish texnologiyasi Toshkent viloyatining o'tloqi-botqoq tuproqlari sharoitida O'rta Chirchiq tumanidagi Sholichilik ilmiy tadqiqot institutining tajriba xo'jaligi dalalarida 8,0 gektar maydonga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2024-yil 13-yanvardagi №06/22-06/62-son ma'lumotnomasi). Natijada, mineral o'g'itlar fonida Uzgumi, Fulvogummat va Rival stimulyatorlarini soyaning shonalash-gullash va gullash-dukkaklanish

fazalarida 2 marta bargdan oziqlantirilganda, mos ravishda Nafis navidan Uzgumi stimulyatori qo'llanilganda 31,6 s/ga, Fulvogummat stimulyatori qo'llanilganda 33,7 s/ga va Rival stimulyatori qo'llanilganda 32,9 s/ga, Vilana navidan esa Uzgumi stimulyatori qo'llanilganda 29,9 s/ga, Fulvogummat stimulyatori qo'llanilganda 33,0 s/ga va Rival stimulyatori qo'llanilganda 32,1 s/ga don hosili olishga erishilgan;

soyaning Vilana va Nafis navlarini yetishtirishda mineral o'g'itlarning N50P100K70 kg/ga me'yori qo'llanilgan fonda Uzgumi stimulyatorini 240 ml/ga, Fulvogummat stimulyatorini 300 ml/ga va Rival stimulyatorini 600 ml/ga me'yorlarda 2 marta barg orqali oziqlantirish texnologiyasi Yangiyo'l tumanidagi "Navoyi Lobar Agro Madad" fermer xo'jaligida 16,0 gektar maydonga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2024-yil 13-yanvardagi №06/22-06/62-son ma'lumotnomasi). Natijada, "Nafis" navidan Uzgumi stimulyatori qo'llanilganda 30,8 s/ga, Fulvogummat stimulyatori qo'llanilganda 33,2 s/ga va Rival stimulyatori qo'llanilganda 32,5 s/ga, Vilana navidan esa Uzgumi stimulyatori qo'llanilganda 28,1 s/ga, Fulvogummat stimulyatori qo'llanilganda 31,2 s/ga va Rival stimulyatori qo'llanilganda 29,7 s/ga don hosili olishga erishilgan;

soyaning Vilana va Nafis navlarini yetishtirishda mineral o'g'itlarning N₅₀P₁₀₀K₇₀ kg/ga me'yori qo'llanilgan fonda Uzgumi stimulyatorini 240 ml/ga, Fulvogummat stimulyatorini 300 ml/ga va Rival stimulyatorini 600 ml/ga me'yorlarda 2 marta barg orqali oziqlantirish texnologiyasi Bo'ka tumanidagi "Jaloliddin Xamidzoda" fermer xo'jaligining 16 gektar maydonida va Oqqo'rg'on tumanidagi "Mirtojibeva Feruza" fermer xo'jaligining 16 gektar maydonida joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligining 2024-yil 13-yanvardagi №06/22-06/62-son ma'lumotnomasi). Natijada, mineral o'g'itlar fonida Uzgumi, Fulvogummat va Rival stimulyatorlarini soyaning shonalash-gullash va gullash-dukkaklanish fazalarida 2 marta bargdan oziqlantirilganda, Nafis navidan mos ravishda Uzgumi stimulyatori qo'llanilganda 30,3 s/ga, Fulvogummat stimulyatori qo'llanilganda 32,7 s/ga va Rival stimulyatori qo'llanilganda 31,5 s/ga, rentabellik darajasi esa mos ravishda 139,8 %, 159,4 %, 150,3 % ni tashkil etgan. Vilana navidan esa Uzgumi stimulyatori qo'llanilganda 29,4 s/ga, Fulvogummat stimulyatori qo'llanilganda 31,6 s/ga va Rival stimulyatori qo'llanilganda 30,4 s/ga, rentabellik darajasi esa mos ravishda 132,8 %, 152,1 %, 140,7 % ni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dala va laboratoriya tajribalari har yili Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi va Sholichilik ilmiy tadqiqot instituti tomonidan tuzilgan aprobatsiya komissiyasi tomonidan ko'rikdan o'tkazilgan va ijobiy baholangan, tadqiqot o'tkazilgan yillar bo'yicha yozilgan yillik hisobotlar institutning Uslubiy va Ilmiy kengashlarida muhokama qilingan. Dissertatsiya ishining asosiy ilmiy natijalari Respublika miqyosidagi anjumanlarda 2 marta va xalqaro anjumanlarda 2 marta ma'ruza qilingan hamda muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 1 ta tavsiyanoma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining ilmiy natijalarni chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 3 tasi mahalliy va 3 tasi

xorijiy jurnallarda nashr ettirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda ob‘ekti va predmetlari tavsiflangan, O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyasi taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprotatsiyada ijobiy baholanganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Soya o‘simligining o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligiga stimulyatorlarning ta‘siriga oid ilmiy adabiyotlar tahlili (adabiyotlar sharhi)”** deb nomlangan birinchi bobida, mavzu bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari, xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlili batafsil yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotlar maqsadidan kelib chiqib, soya ekini bo‘yicha mineral o‘g‘itlar va stimulyatorlarni qo‘llashning o‘simlik o‘sishi va rivojlanishini yaxshilash, amal davrining davomiyligi, fotosintez va simbiotik faoliyati, shoxlanishi, birinchi dukkak joylashish balandligi, mingta don vazni, biometriyasi, soya hosili va don sifatini oshirishini yaxshilashdagi ahamiyati batafsil bayon etilgan. Adabiyotlar tahlilining so‘ngida tadqiqotlarning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda soya o‘simligini yetishtirishda stimulyatorlarni bargdan qo‘llashni hisobga olgan holda ular me‘yorlarini to‘g‘ri belgilash orqali yuqori va sifatli hosil olish zarurati belgilangan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot o‘tkazish joyi, sharoiti va uslubi”** deb nomlangan ikkinchi bobida, dala tajribalari o‘tkazilgan mintaqaning geografik o‘rni, tadqiqotlar o‘tkazilgan hududning tuproq-iqlim sharoitlari va tadqiqot o‘tkazish uslublari, shuningdek, soya yetishtirishda qo‘llanilgan agrotexnik tadbirlar va tadqiqotlarni olib borishda foydalanilgan soyaning Nafis va Vilana navlarining tavsifi keltirilgan.

Dala tajribalari Sholichilik ilmiy tadqiqot institutining tajriba dalalarida o‘tkazilib, dala tajribalarini joylashtirish, hisoblashlar va kuzatuvlar “Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari” (PSUYAITI), “Методика полевого опыта” (B.Dospexov), “Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур”, “Методы агрохимических, агрофизических исследований почвы Средней Азии” uslublaridan foydalanildi. Olingan natijalarning statistik tahlili Microsoft Excel dasturi yordamida va B.A.Dospexovning “Методика полевого опыта” uslubiy qo‘llanmasi asosida amalga oshirilgan.

Dissertatsiyaning **“Soya navlarining o‘sishi, rivojlanishi, fotosintetik va simbiotik faoliyatiga stimulyatorlarning ta‘siri”** deb nomlangan uchinchi

bobida, mineral o'g'itlar va stimulyatorlarning soya navlarining tup soni va saqlanish darajasi, o'sishi, rivojlanish davrlari davomiyligi, simbiotik faoliyati va ildiz rivojlanishi, fotosintetik faoliyati, shoxlanishi, pastdagi birinchi dukkagining joylashish balandligi, mingta don vazni va biometrik ko'rsatkichlariga ta'siri to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Soya navlariga mineral o'g'itlar va stimulyatorlar ta'sirida amal davri boshidagi tup soni bo'yicha olingan ma'lumotlarga ko'ra, Nafis navining fon variantida 93,6 %, mineral o'g'itlar fonida Uzgumi stimulyatori qo'llanganda 93,9-95,7 %, Fulvogummat stimulyatori ta'sirida 96,3-97,8 % va Rival stimulyatori ta'sirida 94,5-96,5 % bo'lganligi aniqlandi. Vilana navining fon variantida 92,2 %, mineral o'g'itlar fonida Uzgumi stimulyatori qo'llanganda 92,8-94,4 %, Fulvogummat stimulyatori ta'sirida 93,6-94,9 % va Rival stimulyatori ta'sirida 93,2-95,1 % bo'lganligi aniqlandi. Soya navlarining amal davri oxiridagi tup soni bo'yicha olingan ma'lumotlarga ko'ra, Nafis navining fon variantida 90,1 %, mineral o'g'itlar fonida Uzgumi stimulyatori qo'llanganda 92,1-96,5 %, Fulvogummat stimulyatori ta'sirida 91,9-99,4 % va Rival stimulyatori ta'sirida 92,1-98,8 % bo'lganligi aniqlandi. Vilana navining fon variantida 90,8 %, mineral o'g'itlar fonida Uzgumi stimulyatori qo'llanganda 90,5-95,2 %, Fulvogummat stimulyatori ta'sirida 92,4-98,7 % va Rival stimulyatori ta'sirida 91,3-96,9 % bo'lganligi aniqlandi.

Soya navlarining amal davri davomiyligiga mineral o'g'itlar va stimulyatorlarning ta'siri aniqlanib, Nafis navining fon variantida amal davri 129 kuni tashkil etdi. Mineral o'g'itlar fonida Uzgumi stimulyatori qo'llanganda 125-127 kuni, Fulvogummat stimulyatori ta'sirida 123-126 kuni va Rival stimulyatori ta'sirida 124-126 kuni tashkil etdi. Vilana navining fon variantida amal davri 120 kuni tashkil etdi. Mineral o'g'itlar fonida Uzgumi stimulyatori qo'llanganda 116-118 kuni, Fulvogummat stimulyatori ta'sirida 114-116 kuni va Rival stimulyatori ta'sirida 115-117 kuni tashkil etdi. Stimulyator ta'sirida amal davri qisqarganligi kuzatildi.

Ushbu stimulyatorlarning o'simlik o'sishiga ta'siri aniqlanganda Nafis navining fon variantida poya balandligi 132,9 sm.ni tashkil qildi.

Mineral o'g'itlar fonida Uzgumi stimulyatori qo'llanganda poya balandligi fon variantidan 15,6-19,9 %, Fulvogummat stimulyatori ta'sirida 17,3-23,9 % va Rival stimulyatori ta'sirida 16,3-20,2 % yuqori bo'ldi. Vilana navining fon variantida poya balandligi 116,1 sm.ni tashkil qildi. Mineral o'g'itlar fonida Uzgumi stimulyatori qo'llanganda poya balandligi fon variantidan 8,2-22,0 %, Fulvogummat stimulyatori ta'sirida 22,7-35,3 % va Rival stimulyatori ta'sirida 15,8-28,9 % yuqori bo'ldi (1-jadval).

Soya navlarida barg yuzasi shakllanishiga mineral o'g'itlar fonida stimulyatorlar ta'siri aniqlandi. Soyaning Nafis navining fon variantida barg yuzasi 45,3 ming m²/ga.ni tashkil etib, mineral o'g'itlar fonida Uzgumi stimulyatori qo'llanganda barg yuzasi fon variantidan 2,8-7,1 ming m²/ga.ga, Fulvogummat stimulyatori ta'sirida 3,6-8,3 ming m²/ga.ga va Rival stimulyatori ta'sirida 2,6-7,5 ming m²/ga.ga yuqori bo'ldi.


Vilana navining fon variantida barg yuzasi 38,3 ming m²/ga.ni tashkil etib, mineral o'g'itlar fonida Uzgumi stimulyatori qo'llanganda barg yuzasi mineral o'g'itlar ta'sir ettirilgan fon variantidan 1,3-4,1 ming m²/ga.ga, Fulvogummat stimulyatori ta'sirida 3,4-7,1 ming m²/ga.ga va Rival stimulyatori ta'sirida 2,2-5,6 ming m²/ga.ga yuqori bo'ldi (1-rasm).

1-jadval

**Soya navlarining poya balandligiga stimulyatorlarning ta'siri, sm
(2021-2023 yy.)**

Stimulyatorlar qo'llash usullari	Rivojlanish davrlarida poya balandligi, sm		
	shonalash	gullash	dukkaklash
Nafis			
Fon -N ₅₀ P ₁₀₀ K ₇₀ kg/ga	23,2	69,0	132,9
Fon+Uzgumi (urug'ga ishlov berish)	25,2	73,8	153,7
Fon+Uzgumi (bargdan oziqlantirish)	24,0	78,5	159,4
Fon+Uzgumi (urug'ga ishlov berish+bargdan oziqlantirish)	25,6	74,9	156,0
Fon+Fulvogummat (urug'ga ishlov berish)	26,7	79,3	155,9
Fon+Fulvogummat (bargdan oziqlantirish)	25,4	87,3	164,7
Fon+Fulvogummat (urug'ga ishlov berish+bargdan oziqlantirish)	28,0	82,4	157,4
Fon+Rival (urug'ga ishlov berish)	27,2	76,8	154,5
Fon+Rival (bargdan oziqlantirish)	25,9	80,6	159,8
Fon+Rival (urug'ga ishlov berish+bargdan oziqlantirish)	28,2	77,2	156,4
Vilana			
Fon -N ₅₀ P ₁₀₀ K ₇₀ kg/ga	25,0	62,3	116,1
Fon+Uzgumi (urug'ga ishlov berish)	27,0	63,9	125,6
Fon+Uzgumi (bargdan oziqlantirish)	26,3	71,2	141,7
Fon+Uzgumi (urug'ga ishlov berish+bargdan oziqlantirish)	27,9	67,3	130,0
Fon+Fulvogummat (urug'ga ishlov berish)	29,8	71,4	142,5
Fon+Fulvogummat (bargdan oziqlantirish)	28,9	79,2	157,1
Fon+Fulvogummat (urug'ga ishlov berish+bargdan oziqlantirish)	31,9	75,8	146,7
Fon+Rival (urug'ga ishlov berish)	28,5	67,6	134,5
Fon+Rival (bargdan oziqlantirish)	27,6	76,9	149,6
Fon+Rival (urug'ga ishlov berish+bargdan oziqlantirish)	31,9	73,9	145,6

Har ikkala navda ham stimulyatorlarni bargdan oziqlantirilganda yaxshi natija kuzatildi. Demak, mineral o'g'it fonida stimulyatorlarni shonalash, gullash davrining oxiri va dukkaklanish boshida suspenziya usulida qo'llanilganda soya navlarida barg yuzasini rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatganligi kuzatildi (1-rasm).



1-rasm. Stimulyatorlarning soya navlari barg yuzasi hosili orasidagi bog'liqlik

Fotosintetik imkoniyat Nafis navining fon variantida 1,12 ming.m² kun/ga bo'lib, mineral o'g'itlar fonida Uzgumi stimulyatori qo'llanganda fotosintetik imkoniyat fon variantidan 6,3; 15,2 va 8,9 %, Fulvogummat stimulyatori ta'sirida 8,0; 17,9 va 10,7 %, va Rival stimulyatori ta'sirida 5,4; 16,1 va 8,9 % yuqori bo'ldi. Vilana navining fon variantida fotosintetik imkoniyat 0,84 ming.m² kun/ga bo'lib, mineral o'g'itlar fonida Uzgumi stimulyatori qo'llanganda fotosintetik imkoniyat fon variantidan 3,6; 10,7 va 5,9 %, Fulvogummat stimulyatori ta'sirida 9,5; 19,0 va 11,9 %, va Rival stimulyatori ta'sirida 5,9; 15,5 va 9,5 % yuqori bo'ldi. Har ikkala navda ham stimulyatorlarni bargdan oziqlantirilganda yaxshi natija kuzatildi.

Sof fotosintez maxsuldorligi Nafis navining fon variantida 3,81g/m².kun/ga bo'lib, mineral o'g'itlar fonida Uzgumi stimulyatori qo'llanganda sof fotosintez maxsuldorligi fon variantidan 8,4, 27,8 va 19,4 %, Fulvogummat stimulyatori ta'sirida 23,9, 50,4 va 38,6 % va Rival stimulyatori ta'sirida 13,9, 41,9 va 25,2 % yuqori bo'ldi. Vilana navining fon variantida sof fotosintez maxsuldorligi 4,11

g/m².kun/ga bo'lib, mineral o'g'itlar fonida Uzgumi stimulyatori qo'llanganda sof fotosintez maxsuldorligi fon variantidan 11,9, 27,9 va 17,3 %, Fulvogummat stimulyatori ta'sirida 16,5, 38,7 va 27,0 % va Rival stimulyatori ta'sirida 16,1, 31,1 va 26,5 % yuqori bo'ldi. Har ikkala navda ham stimulyatorlarni bargdan oziqlantirilganda yaxshi natija kuzatildi.

Soya navlarida simbiotik faoliyatiga mineral o'g'itlar fonida stimulyatorlar ta'siri aniqlandi. Soyaning Nafis navining fon variantida tugunaklar soni 23,9 mln.dona/ga bo'lib, mineral o'g'itlar fonida Uzgumi stimulyatori qo'llanganda fon variantidan 3,2-8,5 mln.dona/ga.ga, Fulvogummat stimulyatori ta'sirida 12,1-22,2 mln.dona/ga.ga va Rival stimulyatori ta'sirida 8,0-17,1 mln.dona/ga.ga ortdi.

Nafis navining fon variantida tugunaklar vazni 4,8 s/ga bo'lib, mineral o'g'itlar fonida Uzgumi stimulyatori qo'llanganda fon variantidan 1,0-2,8 s/ga.ga, Fulvogummat stimulyatori ta'sirida 2,7-4,9 s/ga.ga va Rival stimulyatori ta'sirida 1,6-3,5 s/ga.ga ortdi. Har bir stimulyatorni bargdan oziqlantirilganda qo'shimcha organik modda to'planishi kuzatildi.

Vilana navining fon variantida tugunaklar soni 29,5 mln.dona/ga bo'lib, mineral o'g'itlar fonida Uzgumi stimulyatori qo'llanganda fon variantidan 1,7-8,0 mln.dona/ga.ga, Fulvogummat stimulyatori ta'sirida 14,4-25,3 mln.dona/ga.ga va Rival stimulyatori ta'sirida 8,6-16,5 mln.dona/ga.ga ortdi.

Vilana navining fon variantida tugunaklar vazni 5,6 s/ga bo'lib, mineral o'g'itlar fonida Uzgumi stimulyatori qo'llanganda fon variantidan 0,8-1,7 s/ga ga, Fulvogummat stimulyatori ta'sirida 1,7-4,7 s/ga.ga va Rival stimulyatori ta'sirida 1,2-3,3 s/ga.ga ortdi. Har bir stimulyatorni bargdan oziqlantirilganda qo'shimcha organik modda to'planishi bu navda ham yaxshi natija kuzatildi.

Soya navlarida quruq massa miqdoriga mineral o'g'itlar va stimulyatorlar ta'siri aniqlanganda Nafis navining fon variantida quruq massa miqdori 73,6 s/ga bo'lib, mineral o'g'itlar fonida Uzgumi stimulyatori qo'llanganda fon variantidan 3,1-25,7 %, Fulvogummat stimulyatori ta'sirida 21,9-43,9 % va Rival stimulyatori ta'sirida 13,6-37,1 % ortdi. Vilana navining fon variantida quruq massa miqdori 56,3 s/ga bo'lib, mineral o'g'itlar fonida Uzgumi stimulyatori qo'llanganda fon variantidan 11,2-25,9 %, Fulvogummat stimulyatori ta'sirida 18,6-38,4 % va Rival stimulyatori ta'sirida 15,3-30,2 % ortdi.

Soya navlarida mingta don vazniga mineral o'g'itlar fonida stimulyatorlar ta'siri aniqlanganda Nafis navining fon variantida mingta don vazni 152,0 g bo'lib, mineral o'g'itlar fonida Uzgumi stimulyatori qo'llanganda fon variantidan 8,5-12,2 g.ga, Fulvogummat stimulyatori ta'sirida 13,0-16,1 g.ga va Rival stimulyatori ta'sirida 11,3-13,8 g.ga ko'p bo'lganligi aniqlandi. Vilana navining fon variantida mingta don vazni 118,0 g bo'lib, mineral o'g'itlar fonida Uzgumi stimulyatori qo'llanganda fon variantidan 1,2-4,2 g.ga, Fulvogummat stimulyatori ta'sirida 5,5-9,6 g.ga va Rival stimulyatori ta'sirida 5,5-8,7 g.ga ko'p bo'lganligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Stimulyatorlarning soya navlarining biometrik ko'rsatkichlari, hosildorligi, don sifati va iqtisodiy samaradorligiga ta'siri”** deb nomlangan to'rtinchi bobida, stimulyatorlarning soya navlari biometrik ko'rsatkichlari, hosildorligi, don sifati va iqtisodiy samaradorligiga ta'siri to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

3 yillik o'rtacha ma'lumotlar bo'yicha Nafis navida poya balandligi tajribadagi variantlar orasida 172,3-188,3 sm, shox soni esa 1,9-2,8 dona bo'ldi. Bir tup o'simlikdagi dukkak vazni tajribadagi variantlar orasida 43,86-65,74 g oralig'ida bo'ldi. Bir tup o'simlikdagi don vazni tajribadagi variantlar orasida 17,74-24,08 g oralig'ida bo'ldi. Hisobli qatordan olingan don vazni 2060,0 g dan 2620,0 g gacha oshib borgan. Vilana navida poya balandligi tajribadagi variantlar orasida 139,3-161,8 sm, shox soni esa 2,2-3,6 dona bo'ldi. Bir tup o'simlikdagi dukkak vazni tajribadagi variantlar orasida 50,44-98,08 g oralig'ida bo'ldi. Bir tup o'simlikdagi don vazni tajribadagi variantlar orasida 11,96-20,63 g oralig'ida bo'ldi. Hisobli qatordan olingan don vazni 1900,0 g dan 2540,0 g gacha oshib borgan.

2-jadval

Soya navlari hosildorligiga stimulyatorlarning ta'siri, s/ga

Stimulyatorlar qo'llash usullari	Yillar			
	2021	2022	2023	o'rtacha
Nafis navi				
Fon - N ₅₀ P ₁₀₀ K ₇₀ kg/ga	30,4	28,3	29,4	29,4
Fon+Uzgumi (urug'ga ishlov berish)	32,1	29,7	30,9	30,9
Fon+Uzgumi (bargdan oziqlantirish)	35,0	32,0	33,3	33,4
Fon+Uzgumi (urug'ga ishlov berish+bargdan oziqlantirish)	33,6	30,6	31,8	32,0
Fon+FulvoGummat (urug'ga ishlov berish)	34,3	31,4	32,7	32,8
Fon+ FulvoGummat (bargdan oziqlantirish)	38,6	36,1	37,5	37,4
